

## O'ZBEK TILIDAN NEMIS TILIGA BILVOSITA VA BEVOSITA TARJIMANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI TO'G'IRISIDA

*B. Berdialiyev*<sup>1</sup>

### *Annotatsiya:*

Ushbu tezis o'zbek tilidan nemis tiliga badiiy matn tarjimasini jarayonida yuzaga keladigan o'ziga xosliklar to'g'risida bo'lib, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanining nemis tiliga tarjimasini misolida yoritildi.

*Kalit so'zlar:* badiiy tarjima, bevosita va bilvosita, tarjima turlari, madaniy o'ziga xoslik, xos so'zlar va realiyalar.

Badiiy tarjimaning o'ziga xos xususiyatlari asliyat va tarjima tili xalqlarining madaniy o'ziga xosliklari, xalqlarning milliylik, urf-odatlar, ana'nalari hamda diniy va milliy qadriyatlarida namoyon bo'ladi. Bularni asosan milliy so'zlar, realiyalar, xos so'zlar, maqol va matallar hamda xalq og'zaki ijodi namunalari til birliklarida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Bevosita tarjima bu to'g'ridan-to'g'ri asliyat matni bilan ishlash natijasida yuzaga keladigan tarjima. Bevosita tarjimada tarjimonning asliyat tilini bilishi talab etiladi. Bilvosita tarjimada tarjimon asliyat tilidan ikkinchi tilga o'girilgan matn asosida uchunchi bir tilga ag'daradi. Ya'ni tarjimadan tarjima amalga oshiriladi. Natijada birinchi tarjima jarayonidagi kamchiliklar uchunchi tilga o'tishi oqibatida tarjima sifati pasayib boradi. Shunday ekan bevosita tarjimaning ahamiyati juda katta hisoblanadi. Shuning uchun ham qadimda buyuk asarlar tarjimasini amalga oshirish maqsadida tarjimonlar juda ko'p vaqt sarf qilsalarda asliyat tilini va usha xalq madaniyatini mukammal o'rganishgan va keyin tarjimini amalga oshirishgan.

O'zbek badiiy adabiyoti namunalari nemis tiliga tarjima ishlarining aksariyati bilvosita, ko'pincha rus tili orqali amalga oshirilgan. Shuningdek, ularni rus tili orqali o'zbek kitobxonlariga yetkazish yo'lida ijod qilayotgan tarjimonlarning sermashaqqat mehnatlarini e'tirof etgan holda bilvosita tarjima asliyatdagi boy badiiy semantik-stilistik ifodadorlikni to'lig'icha o'zbek kitobxonlariga etkaza olmayotganligi ham haqiqatdir. Shu sababdan nemis va rus tillarini chuqur o'rgangan tadqiqotchilar, tarjimonlar tayyorlash bugungi tarjima sohasining dolzarb masalalaridan biri bo'lib turibdi.

Tadqiqot ishi obyektini sifatida A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani asliyat matni, asarning L.Bart va V.Smirnovalar tarjimasidagi ruscha matni (Кадыри А., Минувшие дни. Роман. [Пер. с узбек. Л. Бать и В. Смирновой. Вступит. Статья И.Султанова, с. 5-23] – Ташкент, Гослитиздат УзССР, 1958. – 374 с.), nemis tarjimoni Arno Shpext tomonidan bilvosita (rus tilidan amalga oshirilgan) nemischa tarjimasini (Kadiriy A., Die Liebenden von Taschkent. / Aus dem Russischen von Arno Specht. – Berlin, Im Verlag Kultur und Fortschritt, 1968. 361 s.) hamda Barno Aripovaning asliyatdan foydalangan holda Arno Shpext tarjimasining qayta ishlangan nashridan foydalanildi. Asar Arno Shpext tomonidan ilk bor bilvosita, ya'ni rus tilidagi tarjimadan nemis tiliga o'girilgan va 1968-yilda "Die Liebenden von Taschkent" (tarjimasini: toshkentlik sevishganlar) nomi bilan Berlinda chop etilgan. 2020-yilga kelib esa asli tojikistonlik olimi Humboldt universiteti dotsenti Barno Aripova Arno Shpext tarjimasini asliyatdan foydalanilgan holda qayta ishladi va qayta nashr ettirdi. Ya'ni Barno Aripova o'z ishini mustaqil tarjima deb atamadi, balki Arno Shpext tarjimasini "asliyatdan foydalangan holda qayta ishlandi" deb atadi (Qodiri A., 2020;1). Shunday bo'lsada, biz ushbu tadqiqot ishimizda ikkala nashrni qiyoslash natijasida, qator muhim farqlar mavjudligini inobatga olib "tarjimalar" deb atashga qaror qildik. Barno Aripova tarjimasida asliyatdan foydalanilganlik, ya'ni bevosita tarjima jarayonining ta'siri yaqqol namoyon bo'lgan. Bunda ikki tarjima orasidagi farqni nafaqat til hodisalaridagi farqlarni balki, muallifning g'oyasini to'laqonli yetkazib berilishida ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, Arno Shpext tarjimasida muallifning inqilobiy g'oyasini ifodalovchi qaxramonlarning ayrim suhbatlari tushirib qoldirilgan. Shuningdek, asrning birinchi bo'limidagi muallifga tegishli "Yozg'uchidan" nomli kirish so'zi va so'ngso'zlar ham Arno Shpext tarjimasidan tushirib qoldirilgan. Shuningdek, uchunchi bo'limdagi "Qipchoqqa qirg'in" bobining oxirida rus bosqiniga qarshi aytilgan muallifning achchiq gaplari ham mavjud emas. Bunday tushirib qoldirishlarga o'sha davrdagi siyosiy-mafkuraviy senzura sabab bo'lganligini tushunish mumkin. Asarning B.Aripova tarjimasida esa bu kamchiliklarning barchasi tuzatilgan. Bundan tashqari tarixiy so'zlar, realiyalar va milliy so'zlarning Arno Shpext tarjimasida berilishida rus tilining ta'siri yaqqol seziladi.

Yuqorida sanab o'tilgan tarjima ishlari kuzatish natijasida shunday xulosa qilish mumkinki, asliyatdan bevosita boshqa tilga tarjima ikkala tilda ham yuqori darajada tajribaga ega bo'lgan va asliyat tili sohiblari tarixi,

<sup>1</sup> *Berdialiyev Bahodir Nazarovich, SamDChTI, katta o'qituvchisi*

dini, kundalik hayot tarzi, madaniyati va urf-odatlaridan yaxshi xabardor bo'lgan tarjimon tomonidan amalga oshirilishi tarjimaning yanada mukammal bo'lishiga olib keladi. Asliyat tili xalqlari tarixini yaxshi bilmagan tarjimon bilvosita yoki bevosita tarjimada bo'lsin ma'lum xatolarga yo'l qo'yishi mumkin. Fikrimizning dalili sifatida quyidagi bir holatga e'tiboringizni qaratmoqchimiz. Arno Shpext tarjimasida "Boburnoma"ga quyidagicha izoh berilgan: "Memorien des indischen Herschers Babur" (so'zma-so'z tarjimasi: Hind hukmdori Boburning xotiralari). Nemis tilidagi "indisch" sifatini ikki ma'nosi mavjud bo'lib, birinchisi insonning qaysi millatga mansubligini anglatadi, ikkinchisi biror mamlakat fuqaroligini bildiradi. Demak Arno Shpext tomonidan "Boburnoma"ga berilgan izohni Zahiriddin Muhammad Bobur tarixini yaxshi bilmagan nemis o'quvchilari buni "hind millatiga mansub Bobur ismli hukmdor" sifatida yoki "Hindistonlik Bobur ismli hukmdor" deb tushunadi. Natijada Boburning aslida kim ekanligi o'quvchiga qorong'uligicha qoladi. Bu holat Barno Aripova tomonidan quyidagicha izoh berish orqali tuzatilgan: "Babur-name: Memorien des in Andijan geborenen Begründers des indischen Mogulreiches Babur (1483-1530)" (tarjimasi: hind-mo'g'ul davlati asoschisi andijonlik (Andijonda tug'ilgan) Boburning kundaligi).

Bilvosita tarjimaning yana bir xususiyati shundaki, birinchi tarjimada yo'l qoyilgan kamchiliklar keyingi bilvosita tarjimada ham takrorlanadi. Ko'p hollarda maqollar, iboralar va boshqa frazeologik birliklar vosita tilga ham shunchaki so'zma-so'z o'girilgan bo'lsa bilvosita tarjimada uchunchi talga ham so'zma-so'z tarjima bilan kifoyalaniladi. Masalan, asliyatdagi "Yurgan daryo, o'ltirgan bo'yro emish" (Qodiriy A., 2018;15) rus tiliga "Кто шагает – подобен реке, кто сиднем сидит – подобен циновке" (Кадыри А., 1958;36) shaklida tarjima qilingan bo'lsa, nemis tarjimoni A.Shpext tomonidan ushbu maqol "Wer vorwärtsschreitet, gleicht dem Fluß, wer zu Hause hockt, der Bastmatte" (Kodiri A., 1968;14) shaklida so'zma-so'z o'girgan.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, o'zbek va nemis tillari grammatik tuzilish jihatidan farqlanadi. Bu omil ham tarjima jarayonida ma'lum qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. O'zbek tilida gap tuzilishi erkin, lekin ko'pincha sodda va ravon bo'ladi. Nemis tilida esa gap tuzilishi ko'pincha ancha murakkab va rasmiyroq bo'lishi mumkin.

Shuningdek, etiket qoidalari ham muhim ahamiyatga ega. O'zbek tilida odatda hurmatli va muloyim formada so'zlash mavjud, bu ayniqsa, kattalarga murojaat qilishda muhim. Nemis tilida ham shunday hurmatli forma mavjud, ammo uning ishlatilishi o'zbek tilidagidan farq qilishi mumkin. Masalan, o'zbeklarda yoshi kattalarga nisbatan, shuningdek, o'zbek oilasida ota-onaga hamda yoshi katta oila a'zolariga nisbatan siz deb murojaat qilinadi. Nemislarda esa ota-onaga hamda yoshi katta oila a'zolariga nisbatan odatda sen deb murojaat qilinadi. Siz hurmat formasi odatda notanish bo'lgan shaxslarga nisbatan ishlatiladi.

Bundan tashqari muayyan iboralar yoki so'zlar ikkala tilda turlicha tushunilishi mumkin. Lug'at boyligi va sinonimlar ham tarjimada ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. O'zbek tilida bir so'zning ko'plab sinonimlari bo'lishi mumkin, ularning barchasini ham nemis tiliga to'g'ri tarjima qilish mumkin emas. Shuning uchun kontekstga muvofiq to'g'ri variantni tanlash zarur bo'ladi. Masalan, o'zbek tilidagi "Xudo xayrini bersin" iborasi nemis tiliga "Got sei Dank" (tarjimasi: Xudoga shukur) iborasi bilan berilgan (Kodiri, 1968, 132).

Shuningdek, o'zbek tili kirill yoki lotin alifbosidan foydalanadi, nemis tili esa lotin alifbosidan foydalanadi. Shuning uchun ba'zi so'zlarning talaffuzi va yozilishida muammolar tug'ilishi mumkin. Masalan, *taqsir* so'zi rus tili orqali tarjima ta'sirida *taksyr* ko'rinishida o'girilgan bo'lsa, bevosita tarjimada *taqsir* ko'rinishida saqlangan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bevosita o'zbek tilidan to'g'ridan-to'g'ri nemis tiliga tarjima qilishda to'g'ridan-to'g'ri lingvistik bog'lanish ta'minlanadi. Bunda ikki tildagi grammatik, leksik va sintaktik farqlarni hisobga olish juda muhimdir. Bunday tarjimada tarjimon har ikkala tilning xususiyatlarini yaxshi bilishi kerak. Shuningdek, madaniy moslashuv ham bevosita tarjima jarayonida qiyinchilik tug'diradigan omil hisoblanadi. Tarjimon o'zbek va nemis madaniyatlari o'rtasidagi farqlarni hisobga olish zarur. Bu tarjimada madaniy elementlarni to'g'ri ifodalash, shevalarni yoki madaniy konnotatsiyalarni mos ravishda tarjima qilishni talab qiladi. Bilvosita tarjimaning asosiy xususiyatlaridan biri tarjimaning ikkilamchi til orqali tarjima amalga oshirilishidir. Matn avval bir tilga tarjima qilinadi va keyinchalik nemis tiliga o'giriladi. Bu jarayonda har bir bosqichda ma'no o'zgarishi yoki yo'qolishi mumkin, chunki har bir til o'ziga xos ma'no va ifoda usullariga ega. Bevosita tarjima o'zbek tilidan nemis tiliga o'g'irishda aniqroq va ishonchli natijalarni taqdim etadi, chunki bu usulda ma'no va kontekst to'g'ridan-to'g'ri saqlanadi. Bilvosita tarjima esa zaruriyatga qarab qo'llaniladi, ammo bunda ma'no o'zgarishi va xatolar xavfi yuqoriroq bo'lishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

[1]. Мусаев Қ. *Таржима назарияси асослари: Дарслик. Т.: Ўзбекистон Республикаси ФА "Фан" нашриёти, 2005.-352 б.*

[2]. Qoraboyev U., Soatov G'. *O'zbekiston madaniyati. – Toshkent: "Tafakkur bo'stoni", 2011. - 196 b.*

- [3]. Usmonova Sh., Mirsharipova B. *Frazeologizmlarni tarjimada berish usullari // ЛИНГВИСТ. Илмий мақолалар тўплами. VI. –Тошкент: Akademnashr, 2017. –Б. 43-46.*
- [4]. Usmanova Sh. *Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. Darslik. Toshkent: TDShI, 2017. -256 b.*
- [5]. *Vambery H. Jusuf und Ahmad. Budapest, 1911. 450 б.*